Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

O'ZBEK EPOSSHUNOSLIGIDA "GO'RO'G'LI" DOSTONI GENEZISI VA ARXETIPIK ASOSLARINING MIFOPOETIK TADQIQI

Maxsudaxon G'ofurjon qizi Xakimova*
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ xakimovamaxsudaxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda o'zbek folklorshunosligi va eposshunosligida professor Sh.Turdimov tomonidan amalga oshirilgan metodologik burilish, xususan, "Go'ro'g'li" dostonining genezisi, arxetipik va mifopoetik asoslari tahlil qilingan. Olimning tarixiy-jo'grofiy, germenevtik hamda ritual-mifologik metodlarni qo'llagan holda dostonning eng arxaik invariant shakli – "Bobo sujet"ni tiklashi, shuningdek, asar qahramonlari tabiat va quyosh miflari, shamonik initsiatsiya hamda ibtidoiy animistik tasavvurlarning epik transformatsiyasi ekanligini isbotlab bergani yoritilgan

Kalit so'zlar

Eposshunoslik, "Go'ro'g'li" dostoni, arxetip, mifopoetika, genezis, "Bobo sujet", tarixiy-jo'grofiy metod, germenevtika, solyar (shamsiy) mif, ritual-mifologik maktab, alplik tizimi.

DOI: 10.5281/zenodo.21835614

KIRISH

Mustaqillik davriga kelib, alloma H.Zarifov hamda akademik T.Mirzayevlar asos solgan o'zbek eposshunoslik ilmiy maktab an'analarini mantiqiy davom ettirgan holda, jahon folklorshunoslik maktablarining arxetipik-mifopoetik, tarixiy-jo'grofiy, qiyosiy-tarixiy, germenevtik, lingvistik, struktural va semantik tahlil metodlarini uyg'unlashtirib, "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari (2011) nomli fundamental monografiyasi bilan o'zbek eposshunosligida paradigma darajasidagi metodologik burilish hosil qildi. Olim epos genezisini tor tarixiy va vulgar-sotsiologik qoliplardan xalos etib, Go'ro'g'li dostoni sujeti o'zagida yotgan Quyosh topinchi, o'lib-tiriluvchi borliq (tabiat) haqidagi agrar-taqvimiy miflar, shamonik initsiatsiya hamda ibtidoiy animistik-mifopoetik tafakkur yotganini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bizningcha, Sh.Turdimov tadqiqotining eng muhim yutug'i shundaki, olim germenevtik metodni qo'llashi va etimologik-lingvistik tahlili natijasida, manbalar qiyosi orqali dostonning turli variantlarini taqqoslab, "Bobo sujet"ni tikladi, epik matnni uning tarixiy-etnik, yaratilgan davr mifik muhiti va arxetipik asoslari bilan birgalikda "ichdan tushunish" orqali turkiy xalqlarning qadimiy mifik dunyoqarashiga kirib, uni mifopoetik tafakkurga ko'chish o'zanini yorqin ochib berganligidadir. "Go'ro'g'li" eposi yadrosining yaralish davrini xalqimizning shomonistik-animistik tasavvurlari hamda miloddan avvalgi IV asrlarga mansub Quyosh va tabiat mifologiyasi, mifik tasavvurlari bilan bevosita bog'lagan holda, uning VII–VIII asrlardagi islomiy omildan ancha ilgari shakllanganini ilmiy jihatdan to'liq isbotlab berganligidir. Olim jahon va milliy folklorshunoslikning eng ilg'or metodlarini o'zaro uyg'unlashtirib, shu metodlardan foydalanib, doston matnining zohiriy va botiniy qatlamlarini ochishga yo'naltiradi. Jumladan, fin folklorshunoslik maktabi (Y.Kron, K.Kron, A.Aarne) tomonidan ishlab chiqilgan tarixiy-jo'grofiy metodni o'zbek va umumturkiy epos materialiga ijodiy tatbiq etdi. U dostonning ozarbayjon, turkman, o'zbek (ba'zi o'rinlarda Laqay, Tosh shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li, qozoq, tojik, qo'rg'on)

versiyalarini geografik areal va xronologik qatlamlar kesimida atroflicha qiyoslaydi. Professor bu versiyalardagi mushtaraklikni shunchaki bir xalqdan ikkinchisiga ko‘chib yurgan o‘zlashtirma deb emas, umumturkiy ildizga ega bo‘lgan qadimiy kosmogonik mif va arxaik epik o‘zakning tipologik-genetik birligi deb baholaydi. Eposshunoslikda uzoq vaqt davomida o‘z yechimini kutib kelayotgan fundamental muammoga olim Sh.Turdimov tomonidan munosib konseptual yechim berildi. U dostonning ozarbayjon, turkman, o‘zbek variantlar va versiyalar qiyosi orqali dostonning eng ibtidoiy va arxaik invariant shakli bo‘lmish “Bobosujet” hamda uning 4 ta asosiy tadrijiy bosqichini ilmiy jihatdan tiklab beradi. Mifologik maktab va uning solyar (shamsiy), astral (qamariy) hamda meteorologik nazariyalari tamoyillariga tayangan Sh.Turdimov doston shakllanishining ilkin bosqichida astronomik hamda tabiat miflarning o‘rnini ochib beradi. Olim “Go‘ro‘g‘li” eposi va uning qahramoni zamirida Quyosh topinchi hamda yillik fasllar almashinuvini ifodalovchi o‘lib-tiriluvchi borliq (tabiat) haqidagi arxaik mifologik model yotganini isbotlaydi. U doston konfliktini ijtimoiy-siyosiy urush emas, balki kosmik-agrar dualizm (bahor va qish) shaklida tahlilga tortadi. Go‘ro‘g‘li (bahor) hamda Arab Rayhon (qish) o‘rtasidagi ziddiyat va urushlar mavsumiy-taqvimiy marosimlarning epik transformatsiyasi ekani ko‘rsatib beriladi: Go‘ro‘g‘lining Arab Rayhonga qarata aytgan aytimini olim shunchaki maishiy poycha emas, balki keksaygan ko‘klam (Xoljuvon/echki) o‘rniga yosh qish (Zaydin /chibich) quvvatining almashinuvi marosimiy-mifologik kodi ekanini ko‘rsatadi: “Chechamni berib, qizingni oldimmi arab, Echkimni berib, chibichingni oldimmi arab ?” Sh.Turdimov doston matnidagi mifologik nomlar, qahramonlar va joy nomlarini va epik makonlar, mifologik genezisini qiyosiy-tarixiy va lingvistik-etimologik tahlil usulida tadqiq etadi: an’anaviy eposshunoslikda “Go‘ro‘g‘li” nomi “go‘rda (qabrda) tug‘ilgan o‘g‘il” deb zohiriy ma’nolangan bo‘lsa, Sh.Turdimov go‘r/ko‘r o‘zagining qadimiy ildizi ko‘/ku/gu (nurli, quyosh, yo‘rug‘lik) so‘zlariga borib taqalishini ko‘rsatadi. Ya’ni Go‘ro‘g‘li zohiran “Go‘r o‘g‘li” bo‘lib tuyulsa-da, botinan “quyosh o‘g‘li” (koinot nuri) va Ravshan arxetipining o‘zginasidir. Olim lingvistik yondashuvini davom ettirib, Xizr obrazini shunchaki islomiy avliyo emas, balki Xiz (issiq, olov, harorat) + ir/er (iloh, kishi) tamoyilida olov va bahor (Quyosh) ma’budi sifatida, qahramonning onasi (Bibi Hilol /Oqanoy/Al / Albasti) obrazini esa Oy ma’budasi va agrar-serpushtlik ma’budasi arxetipining transfiguratsiyasi sifatida talqin etadi. Dostonlarda uchraydigan Asqartov -shunchaki geografik tog‘ emas, balki As (olov, az) + qar/qir (tog‘) birikmasidan tashkil topgan “Olov tog‘ ” (quyosh tog‘i/koinot markazi) ekanligi; Sutli ko‘l (bolli ko‘l) -ilohiy hayot suvi (bobo-may) manbai ekanligi ochib beriladi. Antropologik va ritual-mifologik maktab yondashuvlariga ko‘ra, olim ibtidoiy animizm va sinov-qayta yaralish, alplik kasali kabi rituallarining eposdagi o‘rnini ko‘rsatib berdi. Go‘ro‘g‘lining 3-7 yoshidagi “telbaliklari” (bozorni ost-ust qilish, odamlarga ozor berish, quloq kesti qilish) hamda chohda/g‘orda “so‘yilib qayta tirilishi” epizodlarini ibtidoiy sinov va qayta yaralish rituallari hamda alplik dardi bilan bir xil hodisa ekanini isbotladi. Olim ushbu yondashuv asosida fanga “Alplik tizimi” va “Alplik dardi” rituallariga tayanib, epik matnning botiniy qatlamlarini ilmiy rekonstruksiya qiladi tushunchalarini olib kirdi va 21 bosqichdan iborat alplik tizimi “qolipini” to‘la tiklab berdi. Sh.Turdimov ushbu “Alplik tizimi” to‘g‘riligini tekshirish uchun uni “Alpomish” dostoniga ham tatbiq etdi ilmiy jihatdan asosladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, professor Sh.Turdimovning “Go‘ro‘g‘li” dostonlari genezisi va tadrijiy bosqichlariga oid fundamental tadqiqoti o‘zbek eposshunosligini jahon folklorshunosligining ilg‘or nazariy va metodologik qoliplari bilan uyg‘unlashtirib berdi. Olimning doston zaminidagi solyar miflar, shamonik initsiatsiya marosimlari va agrar-taqvimiy qarashlarni to‘liq yoritishi, shuningdek, eposning eng ibtidoiy qatlami sanalgan “Bobo sujet” hamda “Alplik tizimi” kabi konseptual modellarni fanga olib kirishi epik matnni an’anaviy qarashlardan farqli ravishda qadimiy mifopoetik tafakkur asosida yoritish imkonini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 100
2.Эшонқул Ж. Миф ва бадиий тафаккур. – Тошкент, 2019. – 245 б